



IJTIMOYIY-GUMANITAR SOHADA ILMIY-INNOVATSION TADQIQOTLAR

ILMIY METODIK JURNALI

ISSN 3060-5059



VOL.3 № 5

2026

PRAGMALINGVISTIKA VA ZIYORAT TURIZMI O'RTASIDAGI O'ZARO BOG'LIQLIKNING LINGVOPRAGMATIK TAHLILI

Avezova Dildora Davlatovna

Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti, PhD, dotsent

Annotatsiya

Mazkur maqolada pragmalingvistika va ziyorat turizmi o'rtasidagi o'zaro bog'liqlik masalalari yoritiladi. Xususan, tilning pragmatik jihatlari – nutqning maqsadi, konteksti, kommunikativ vazifasi ziyorat turizmi jarayonida qanday namoyon bo'lishi tahlil qilinadi. Ziyoratchilar va mahalliy aholi o'rtasidagi muloqot, diniy matnlar, ramziy ifodalar hamda madaniy kontekstning o'rni ilmiy asosda ochib beriladi. Shuningdek, turizm rivojida pragmalingvistik omillarning ahamiyati va istiqbollari ko'rib chiqiladi.

Kalit so'zlar: ziyorat turizmi, pragmalingvistika, nutq aktlari nazariyasi, direktiv nutq aktlari, madaniyatlararo muloqot, kommunikativ kompetensiya, nutq odobi, madaniy moslashuv, turizm diskursi, kommunikativ strategiyalar, tarjima jarayoni.

ЛИНГВОПРАГМАТИЧЕСКИЙ АНАЛИЗ ВЗАИМОСВЯЗИ ПРАГМАЛИНГВИСТИКИ И ПАЛОМНИЧЕСКОГО ТУРИЗМА

Авезова Дилдора Давлатовна

Ташкентский университет информационных технологий имени Мухаммада ал-Хорезми, PhD,
доцент

Аннотация

В данной статье рассматриваются вопросы взаимосвязи прагмалингвистики и паломнического туризма. В частности, анализируются прагматические аспекты языка – цель высказывания, контекст и коммуникативная функция речи – и их проявление в процессе паломнического туризма. Научно обосновывается роль коммуникации между паломниками и местным населением, религиозных текстов, символических выражений, а также культурного контекста. Кроме того, рассматривается значение прагмалингвистических факторов в развитии туризма и их перспективы.

Ключевые слова: паломнический туризм, прагмалингвистика, теория речевых актов, директивные речевые акты, межкультурная коммуникация, коммуникативная компетенция, речевой этикет, культурная адаптация, туристический дискурс, коммуникативные стратегии, процесс перевода.

LINGUO-PRAGMATIC ANALYSIS OF THE INTERRELATION BETWEEN PRAGMALINGUISTICS AND PILGRIMAGE TOURISM

Avezova Dildora Davlatovna

Tashkent University of Information Technologies named after Muhammad al-Khwarizmi, PhD, Associate
Professor

Abstract

This article examines the interrelation between pragmalinguistics and pilgrimage tourism. In particular, it analyzes the pragmatic aspects of language – such as the purpose of utterance, context, and communicative function – and their manifestation within the process of pilgrimage tourism. The study provides a scientific justification of the role of communication between pilgrims and local residents, as well as the significance of religious texts, symbolic expressions, and cultural context. Furthermore, it explores the importance of pragmalinguistic factors in the development of tourism and outlines their future prospects.

Keywords: pilgrimage tourism, pragmalinguistics, speech act theory, directive speech acts, intercultural communication, communicative competence, speech etiquette, cultural adaptation, tourism discourse, communicative strategies, translation process.

Bugungi globallashuv davrida turizm sohasi jadal rivojlanib, uning turli yo'nalishlari, jumladan, ziyorat turizmi ham alohida ahamiyat kasb etmoqda. Ziyorat turizmi diniy, ma'naviy va madaniy

qadriyatlar bilan chambarchas bog‘liq bo‘lib, unda til va muloqotning o‘rni beqiyosdir. Aynan shu nuqtayi nazardan pragmalingsvistika – til birliklarining real kommunikativ vaziyatdagi qo‘llanilishini o‘rganuvchi soha ziyorat turizmini chuqurroq anglashda muhim ilmiy asos bo‘lib xizmat qiladi. Pragmalingsvistika tilning faqat grammatik yoki leksik tomonini emas, balki uning inson faoliyatidagi amaliy qo‘llanilishini, nutq orqali qanday ma‘no yetkazilishini, kontekst va madaniyatning ta‘sirini o‘rganadi. Ziyorat turizmi esa turli millat va madaniyat vakillarini birlashtiruvchi jarayon bo‘lib, bunda samarali muloqot, to‘g‘ri tushunish va hurmat muhim ahamiyatga ega.

Adabiyotlar sharhi va metodologiya

Pragmalingsvistika va turizm, xususan, ziyorat turizmi diskursi o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlik so‘nggi yillarda jahon tilshunosligi va kommunikatsiya tadqiqotlarida dolzarb yo‘nalishlardan biriga aylangan. Mazkur tadqiqot sohasi dastlab J. Ostin [1; 94–120-b.] va J. Syorl [7; 16–71-b.] tomonidan ishlab chiqilgan nutq aktlari nazariyasi (Speech Act Theory) asosida shakllangan bo‘lib, nutqning faqat axborot uzatish vositasi emas, balki ijtimoiy harakat sifatida ham amal qilishini asoslab bergan. Keyinchalik P. Braun va S. Levinson [2; 101–129-b.] tomonidan ishlab chiqilgan nutq odobi va kommunikativ yuzni saqlash strategiyalari turli madaniy muhitlarda muloqotning pragmatik xususiyatlarini tahlil qilishga keng imkon yaratdi.

Jahon tilshunosligida turizm diskursi va pragmatika o‘rtasidagi bog‘liqlikni o‘rganishda G. Dann [4; 2–20-b.], C. Kuper [3; 5–25-b.], D. Urry [8; 5–2-b.] kabi olimlar turizmni ijtimoiy-kommunikativ jarayon sifatida talqin qilib, sayyohlik matnlarining lingvistik va pragmatik xususiyatlarini tahlil qilganlar. Ularning tadqiqotlarida turizm tilining reklama, yo‘riqnoma va xizmat ko‘rsatish diskursi sifatidagi funksiyalari yoritilib, nutqning adresatga yo‘naltirilganligi va madaniy kontekstga bog‘liqligi asoslab berilgan.

Ziyorat turizmi kontekstida esa diniy diskurs va muqaddas makonlar kommunikatsiyasi alohida tadqiqot yo‘nalishi sifatida qaraladi. Bu borada G. Faircloughning [5; 15–25-b.] kritik diskurs tahlili yondashuvi hamda kognitiv lingvistika doirasidagi C. Fillmorening [6; 111–117-b.] freym nazariyasi muhim metodologik asos bo‘lib xizmat qiladi. Ushbu yondashuvlar ziyorat joylaridagi matnlar, belgilar va ramziy ifodalarning pragmatik yuklamasini ochib berishga yordam beradi.

O‘zbek tilshunosligida ham pragmalingsvistika va turizm diskursi masalalariga qiziqish ortib bormoqda. Xususan, o‘zbek olimlari tomonidan ziyoratgohlar leksikasi, diniy matnlar tarjimasini hamda madaniyatlararo muloqot muammolari tadqiq etilgan. Jumladan, ziyorat turizmi leksikasining konseptual va pragmatik xususiyatlari, shuningdek, ularning ingliz tiliga tarjima jarayonidagi ekvivalentlik muammolari bo‘yicha olib borilgan ishlarda nutqning madaniy va kommunikativ jihatlari tahlil qilingan. Bu tadqiqotlar ziyoratgohlar nomlari, diniy terminlar va ramziy birliklarning tarjima jarayonida kontekstual moslashuvini asoslashga qaratilgan.

Umuman olganda, mavjud ilmiy adabiyotlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, pragmalingsvistika va turizm, xususan, ziyorat turizmi o‘rtasidagi bog‘liqlik hali ham kompleks va tizimli tadqiqotlarni talab etadi. Jahon va o‘zbek tilshunosligidagi mavjud ishlar ushbu yo‘nalishning nazariy asoslarini shakllantirgan bo‘lsa-da, ziyorat turizmi diskursining pragmatik xususiyatlarini chuqur va integrativ tarzda o‘rganish istiqbolli ilmiy yo‘nalish sifatida saqlanib qolmoqda.

Muhokama

Pragmalingsvistika tilshunoslikning muhim yo‘nalishlaridan biri bo‘lib, nutq aktlari, implikatura, presuppozitsiya, kontekst kabi tushunchalarni o‘rganadi. Bu soha insonlarning nutq orqali qanday maqsadni ko‘zlashi, tinglovchi tomonidan bu maqsad qanday qabul qilinishi kabi masalalarni tahlil qiladi. Masalan, oddiygina “Xush kelibsiz” iborasi turli vaziyatlarda turlicha pragmatik ma‘noga ega bo‘lishi mumkin: mehmondo‘stlik ifodasi, rasmiy qabul yoki diniy muhitdagi hurmat belgisi sifatida. Aynan shu jihatlar ziyorat turizmida muhim rol o‘ynaydi.

Ziyorat turizmi – bu muqaddas joylarni ziyorat qilish, diniy qadriyatlarni o‘rganish va ruhiy ehtiyojlarni qondirishga qaratilgan turizm turi hisoblanadi. Bunda kommunikatsiya faqat axborot almashinuvi emas, balki ma‘naviy tajriba hamdir. Ziyoratchilar ko‘pincha boshqa til va madaniyat muhitiga kirib boradilar. Shu sababli, ular va mahalliy aholi o‘rtasidagi muloqotda pragmatik kompetensiya, ya‘ni vaziyatga mos ravishda nutqni to‘g‘ri ishlata olish muhimdir. Masalan:

- Muqaddas joylarda past ovozda gapirish;
- Hurmat ifodalovchi so‘zlardan foydalanish;
- Mahalliy diniy odatlarni hisobga olish.

Bu holatlar pragmalingsvistik jihatdan nutqning kontekstga moslashuvini ko‘rsatadi.

Ziyorat turizmi jarayonida quyidagi pragmalingvistik birliklar faol qo'llaniladi:

- Nutq aktlari: duo qilish, tilak bildirish, salomlashish;
- Implikatura: bevosita aytilmagan, ammo tushuniladigan ma'no (masalan, sukut orqali hurmat bildirish);
- Presuppozitsiya: umumiy diniy bilimlarga asoslangan tushunchalar;
- Deixis: joy, vaqt va shaxsга oid ko'rsatkichlar (masalan, "bu muqaddas joy").

Ziyorat joylarida aks etgan belgilar, yo'riqnomalar hamda diniy mazmundagi matnlar nafaqat informativ, balki muhim pragmatik funksiyani ham bajaradi. Ular ziyoratchilarga muayyan xatti-harakat modelini taklif etish, diniy-axloqiy me'yorlarga rioya qilishga undash va muqaddas makonning diniy muhitini saqlab qolish kabi vazifalarni o'zida mujassam etadi. Shu jihatdan bunday matnlar diskursiv birlik sifatida qaralib, ularning asosiy maqsadi axborot yetkazishdan ko'ra kommunikativ ta'sir ko'rsatish, ya'ni adresatning (ziyoratchining) xulq-atvorini tartibga solishdan iboratdir.

Masalan, ziyoratgohlarda tez-tez uchraydigan "Sokinlikni saqlang", "Muqaddas joyda odob saqlang", "Rasmga olish taqiqlanadi" kabi yozuvlar bevosita buyruq yoki iltimos shaklida ifodalangan bo'lib, ular pragmatik jihatdan nutq aktlari nazariyasi nuqtayi nazaridan tahlil qilinganda direktiv nutq aktlari turkumiga kiradi va adresatni muayyan harakatni bajarishga yoki undan tiyilishga undaydi.

Shuningdek, diniy matnlar, masalan, Qur'on oyatlaridan parchalar yoki hadislar asosida berilgan nasihatlar ham ziyoratchining ichki ruhiy holatiga ta'sir ko'rsatish orqali bilvosita uning xulqini boshqaradi. Bu esa pragmatik ta'sirning yanada chuqurroq – kognitiv va affektiv darajada amalga oshirishini ko'rsatadi. Natijada ziyorat joylaridagi bunday yozma diskurs elementlari nafaqat lingvistik, balki sotsiomadaniy va diniy kontekst bilan uzviy bog'liq bo'lgan murakkab kommunikativ tizim sifatida namoyon bo'ladi.

Ziyorat turizmi o'z mohiyatiga ko'ra ko'p madaniyatli kommunikativ muhitni shakllantiradi, chunki turli millat, din va ijtimoiy guruhlarga mansub ziyoratchilar aynan bir makonda o'zaro aloqaga kirishadi. Bunday vaziyatda muloqot jarayoni nafaqat lingvistik kompetensiyani, balki yuqori darajadagi pragmatik sezgirlikni ham talab qiladi. Ya'ni ishtirokchilar nutqning faqat semantik mazmunini emas, balki uning kontekstual, ijtimoiy va madaniy yuklamasini ham to'g'ri anglashlari lozim.

Natija

Mazkur jarayonda pragmalingvistika muhim nazariy-amaliy asos sifatida quyidagi funksiyalarni bajaradi: birinchidan, turli madaniy-me'yoriy tizimlarning tafovuti natijasida yuzaga kelishi mumkin bo'lgan noto'g'ri talqinlar va kommunikativ muvaffaqiyatsizliklarning oldini olishga xizmat qiladi; ikkinchidan, muayyan vaziyatga mos, ijtimoiy maqbul va hurmat tamoyillariga asoslangan nutq uslubini tanlashga yo'naltiradi; uchinchidan esa, kommunikatsiya jarayonida madaniy farqlarni hisobga olish orqali o'zaro tushunishni ta'minlaydi. Masalan, ayrim madaniyatlarda to'g'ridan-to'g'ri savol berish ochiqlik va samimiyat belgisi sifatida qabul qilinsa, boshqa madaniy muhitlarda bunday kommunikativ xatti-harakat suhbatdoshning shaxsiy hududiga kirish yoki hurmatsizlik sifatida talqin qilinishi mumkin. Bu holat nutq odobi tamoyillari nuqtayi nazaridan izohlanganda, shaxsiy obro'-e'tiborni saqlash strategiyalarining madaniyatlararo tafovuti bilan bevosita bog'liq ekanligi ko'rinadi. Shu bois ziyorat turizmi ishtirokchilari, xususan, gidlar, tarjimonlar hamda ziyoratchilarning o'zlari yetarli darajadagi pragmatik bilim va ko'nikmalarga ega bo'lishlari zarur. Bu nafaqat samarali muloqotni ta'minlaydi, balki turli madaniyat vakillari o'rtasida o'zaro hurmat va bag'rikenglik muhitini shakllantirishga ham xizmat qiladi.

Bugungi kunda turizm xizmatlarini takomillashtirish jarayonida til va kommunikatsiya masalalari strategik ahamiyat kasb etmoqda. Xususan, xizmat ko'rsatish sifatini oshirishda nutqning nafaqat lingvistik, balki pragmatik jihatlarini hisobga olish zarurati tobora ortib bormoqda. Shu nuqtayi nazardan pragmalingvistik yondashuv turizm diskursini optimallashtirishda muhim nazariy va amaliy vosita sifatida namoyon bo'ladi. Mazkur yondashuv, avvalo, gidlar va xizmat ko'rsatuvchi xodimlar nutqini kommunikativ jihatdan takomillashtirishga xizmat qiladi. Ya'ni ular tomonidan qo'llaniladigan nutq birliklari vaziyatga mos, madaniy jihatdan maqbul hamda adresat ehtiyojlariga yo'naltirilgan bo'lishi ta'minlanadi. Bu esa xizmat jarayonida yuzaga kelishi mumkin bo'lgan kommunikativ noaniqliklar va tushunmovchiliklarning oldini olish imkonini beradi.

Bundan tashqari, pragmalingvistik yondashuv asosida ko'p tilli axborot tizimlarini yaratish ham muhim yo'nalishlardan biri hisoblanadi. Bunda tarjima jarayonida nafaqat leksik muvofiqlik, balki kontekstual va madaniy moslikni ta'minlash ustuvor vazifa sifatida qaraladi. Natijada turli til vakillari uchun tushunarli, aniq va samarali kommunikativ platforma shakllanadi. Shuningdek, ushbu yondashuv madaniy moslashuv jarayonini kuchaytirishga ham xizmat qiladi. Turli madaniy muhit vakillari o'rtasidagi

kommunikatsiyada nutq odobi, ijtimoiy me'yorlar va an'anaviy qadriyatlarni hisobga olish orqali o'zaro hurmat va tushunishga asoslangan muloqot muhiti yaratiladi. Natijada yuqoridagi omillar ziyoratchilar uchun qulay, samarali va kommunikativ jihatdan barqaror muhitni shakllantirishga xizmat qiladi, bu esa o'z navbatida turizm xizmatlarining umumiy sifat ko'rsatkichlarini sezilarli darajada oshiradi.

Xulosa

Xulosa qilib aytganda, pragmalingvistika va ziyorat turizmi o'rtasida uzviy hamda ko'p qirrali bog'liqlik mavjud. Tilning pragmatik jihatlari ziyorat turizmi jarayonida muloqotning samaradorligini ta'minlash, kommunikativ aniqlikni oshirish hamda turli madaniyat vakillari o'rtasida o'zaro tushunishni mustahkamlashda muhim omil sifatida namoyon bo'ladi. Ayniqsa, nutqning kontekstga mosligi, adresatga yo'naltirilganligi va ijtimoiy-madaniy me'yorlarga uyg'unligi ziyoratchilar uchun ijobiy kommunikativ tajriba shakllanishiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Shu bilan birga, ziyorat turizmini rivojlantirishda faqat moddiy infratuzilmani takomillashtirish bilan cheklanib qolmasdan, balki kommunikativ va madaniy omillarni tizimli ravishda hisobga olish zarur. Xususan, xizmat ko'rsatish jarayonida nutq odobi, madaniy moslashuv va kontekstual moslikni ta'minlash turizm xizmatlarining sifatini belgilovchi muhim mezonlardan biri hisoblanadi. Mazkur nuqtayi nazardan pragmalingvistik tadqiqotlar ziyorat turizmi sohasini yanada rivojlantirish uchun mustahkam ilmiy-nazariy asos yaratadi. Kelgusida ushbu yo'nalishda olib boriladigan chuqur va tizimli izlanishlar nafaqat turizm samaradorligini oshirishga, balki madaniyatlararo muloqotning sifat jihatidan yangi bosqichga ko'tarilishiga ham xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Austin J. L. How to Do Things with Words. – Oxford: Oxford University Press, 1962.
2. Brown P., Levinson S. C. Politeness: Some Universals in Language Usage. – Cambridge: Cambridge University Press, 1987.
3. Cooper C. et al. Tourism: Principles and Practice. – Harlow: Pearson Education, 2008.
4. Dann G. The Language of Tourism: A Sociolinguistic Perspective. – Wallingford: CABI, 1996.
5. Fairclough N. Language and Power. – London: Longman, 1989.
6. Fillmore C. J. Frame Semantics. – Berkeley: University of California, 1976.
7. Searle J. R. Speech Acts: An Essay in the Philosophy of Language. – Cambridge: Cambridge University Press, 1969.
8. Urry J. The Tourist Gaze. – London: Sage Publications, 1990.